

MUSTAQILLIKGACHA BO'LGAN NEMIS-O'ZBEK ADABIY ALOQALARI: NEMISCHA-O'ZBEKCHA POETIK VA FOLKLOR TARJIMALAR

Yakubov Fazliddin O'taganovich

Jizzax politexnika institute

“O'zbek va xorijiy tillar” kafedrasida dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada mustaqillik davrigacha bo'lgan nemischa-o'zbekcha poetik va folklor tarjimalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: poetik tarjima, folklor tarjima, tarjimashunoslik, tarjima nazariyasi, badiiy tarjima, obraz, obrazli vositalar.

Аннотация: В статье анализируются немецко-узбекские поэтические и фольклорные переводы периода до обретения независимости.

Ключевые слова: поэтический перевод, фольклорный перевод, переводоведение, теория перевода, художественный перевод, образ, образные средства.

Abstract: This article analyzes German-Uzbek poetic and folklore translations from the period before independence.

Keywords: poetic translation, folklore translation, translation studies, translation theory, literary translation, image, figurative means.

Ko'p tarjima bo'lgan asarlar nemis she'riyati na'munalari bo'lib, ularning tarjimasi o'zbek adabiyotining badiiy aloqalari qamrovini kengaytiradi. H.Haynening she'rlarini Abdulla Sher, Hayriddin Saloh, G'ofur G'ulom, Oybek, Sa'dulla Ahmad, Azim Suyun kabi o'zbek shoirlari o'zbek tiliga rus tili orqali o'girdilar. 20-asrning oxiri va 21-asrning boshqalarida esa, nemis she'riyatining bevosita tarjima qiluvchi qator o'zbek shoir va shoiralari avlodi yetishib chiqdi. Ular sobiq Germaniya Demokratik Respublikasi shoirlari she'rlarini o'zbek tiliga mohirona tarjima qilishdi.

Nemis-o'zbek she'riy tarjimalari tarixiga ega dastlab, H.Hayne o'zbek she'rxoniga ilk bor shoirlarimiz G'ofur G'ulom, Oybek, Shayhzoda va Mirtemirlar tomonidan tanishtirilgan.

XX asrning 20-yillar ikkinchi yarmida, 30-yillarning boshlarida nemis-o'zbek adabiy aloqalarida eng faol forma – she'riy tarjima hisoblanib, bu o'zbek adabiy tilini yanada boyitishga, yangi adabiy shakllarni egallashga, o'zbek she'riyatining ritmik imkoniyatlarini kengaytirishga sezilarli xissa qo'shdi. tarjima qilingan asarlar o'zga til muhitida, o'zining yangi umrini boshlab, boshqa adabiyot mundarijasini aktual mavzular bilan boyitdi. Nemis adabiyotidan o'sha yillari qilingan xilma-xil tarjimalar shunchaki o'zga adabiyotlar bilan tanishtirish maylining natijasi bo'lmay, davr taqozosi tufaylidir. Masalan, Haynrix Haynening 20-yillarining ikkinchi yarmida o'zbek she'rxoni Cho'lpon tarjimalari bilan asosan lirik shoir sifatida tanigan bo'lsa, 30-yillarning ikkinchi yarmi va 40-yillarning boshlarida (Oybek, G'ofur G'ulom, Shayhzoda, Mirtemir) tarjimalari, fashizm mafkurasiga qarshi

ommaviy kurash olib borilgan davrda oddiy xalq tematikasining kuychisi, o'zbek satirik sifatida ("Germaniya qishki ertak", "Sileziya to'quvchilar", "Tag'in Vatanda" va boshqalar) tanishtirildi.

Hayne asarlarini o'zbek tiliga birinchi bo'lib tarjima qilgan shoirlardan biri Oybek edi. Haynening Oybek tarjimasidagi "Sileziya to'quvchilar" va "Qullar kemasi" she'rlari birinchi marta o'rta maktablarning 9-sinfi uchun chop etilgan "Adabiyot xrestomatyasi"da (1935-1940), shuningdek Haynening "Lirik she'rlar" (1941) kitobida e'lon qilingan.

1944 – yilda yozilgan "Sileziya to'quvchilari" she'rini tarjima qilishda oybek G.Shengeli tarjimasidan foydalangan. She'ning o'zbekcha tarjimasini birinchi marta "Adabiyot xrestomatiyasi", keyinchlik Haynening "Lirik she'rlar" to'plamida chop etilgan. She'r tarjima etilgan sana aniq ma'lum emas. Tarjimaning qo'lyozma nusxasi Oybek arxivida saqlanadi. 1853- yilda, shoirning og'ir xastalik davrida yozilgan va "1853-1854 yillar she'rlari" turkumiga kirgan "Qullar kemasi" balladasi birinchi marta 1854-yilda "Haynrix Haynening turli asarlari" kitobida bosilgan. Ballada Oybek tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan bo'lib, uning aniq sanasi ma'lum emas. Tarjimaning qo'lyozma nusxasi saqlanmagan. "Qullar kemasi" "Adabiyot xrestomatiyasi"da, shuningdek H.Haynening "Lirik she'rlar" kitobida e'lon qilingan. taniqli adabiyotshunos O.Sharofiddinovning shu davrda 9-sinf uchun nashr etilgan "Adabiyot darsligi" da "Qullar kemasi"dan keltirilgan parchalar Oybek tarjimasidan jiddiy farq qiladi. Bu hol mazkur she'ning o'zbek tiliga qilingan tarjimasini oybekka qadar ham mavjud bo'lgan, deb tahmin qilishimizga imkon beradi.

O'tgan asrning 70-yillariga kelib, Haynrix Hayne o'zbek adabiyotiga lirik shoir sifatida kirib keldi. Bunda hayriddin Saloh, Abdulla Sher kabi tarjimon shoirlarning o'rni katta bo'ldi.

She'r va shoir qadri gitlerchi vaxshiyalar tomonidan oyoqosti qilingan vaqtda – 1941 yilda f.f.d., professor G'ulom Karimov so'z boshi va tahriri bilan Toshkentda Haynrix haynening she'rlar majmuasi e'lon qilindi. jahon adbiyotida ilk bor ishchilar mavzusiga bag'ishlab yozilgan "Sileziya to'quvchilari", "Qullar kemasi", "Germaniya, qishki ertak" kabi mashhur asarlar mazkur to'plamga kiritildi. O'zbek she'riyat shaydolarini Haynrix Hayne ijodi bilan Hayriddin Saloh yaqinroq tanishtirdi. U H.Haynening 150 ga yaqin she'rini 1973 yili "Lirika" nomi bilan nashr ettirdi.

Drammatik asarlar bilan bir qatorda o'tgan asrda olmon xalq ertaklariga murojaat etildi. Aka-uka Yaaqob va Vil'helm Grimmalar ertaklarining tarjimasini 1938-1940 yillarda Vahob Ro'zimatov, Sanjar Siddiqlar tomonidan amalga oshirildi. Ulardan keyin esa Yo'ldosh Nurmurodov, G'anijon Mahmudov, Xurram Raximovlar tomonidan kengroq o'rganilib, tahlil qilingan. "Ertaklar karvoni" nomi bilan 1959-yilda 42 ta ertaklar Sharif Ro'ziyev tomonidan tarjima qilingan.

1938-yilda Farid Rasulov Aka-Uka Grimmlar ertaklari to'plamidan "Botir tikuvchi" ertagini rus tili orqali tarjima qilgan.

1939-yilda Adham Rahmat sakkizta nemis xalq ertaklarini: "Bremen musiqachilari", "Bir xurmacha shovla", "Quyvon bilan tipratikan" ertaklarini;

1940-yilda Vahob Ro'zmatov o'zbek bolalari nashriyotida aka-uka Grimmlarning "Oltin g'oz" ertagini;

1954-yilda M.Sodiqova, 1963-yilda R.Fayzullayev, 1978-yilda S.To'raxonovalar Aka-Uka Grimm ertaklarini ko'p jihatdan bilvosita tarjima qilishdi. V.Gauf "Mitti Muk", [5] "Burunboy pakana" kabi ertaklar 1992 rus tilidan Umida Yunusova tamonidan tarjima qilingan.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Jumatova N. Hozirgi o'zbek she'riyatida rang bilan bog'liq bo'liq ramziy obrazlar. Filol. fan. nomzodi... diss. –Toshkent. 2000. – 126 b.
2. Жаббаров С.Ж. Гетенинг “Западно восточный диван”. Текст. Интерпретация. Перевод. Дис. ... канд. филол. наук. – Т., 1995. – 212 с.
3. Karimov Sh. Dillardan dillarga. Toshkent: 1980, 9- b.
4. Абдуллаева Р. Шиллер и узбекская литература. Автореф. дис. на соиск. уч. степени. канд. филол. наук. – Ташкент, 1986. стр. 24
5. V.Gauf. Mitti Muk. Burunboy pakana. Ertaklar. Toshkent. “Cho'lpon” nashriyoti. 1992. - 77 b. Tarj. Rus tilidan Umida Yunusova
6. Ванечкова Г. Поэзия, символ, перевод. Univerzita Karlova-Praha. 1990. с.99.